

ISLOMDA INSON HUQUQLARI HIMOYASI, IJTIMOYIY TENGLIK, ADOLAT VA
TOLERANTLIK

Djalilova Rayxona Rovshanovna

TAQU 1-kurs talabasi.

+99897-706-26-31 rdjalilova150@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20336348>

Annotatsiya. *Islom dini jamiyat hayotini faqatgina diniy marosimlar orqali emas, balki axloqiy va huquqiy me'yorlar asosida tartibga soluvchi mukammal ta'limotdir. Qur'oni Karim va Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hadislarida inson huquqlarini e'zozlash, jamiyatda tenglik va adolatni qaror toptirish hamda turli e'tiqod va qarashlarga bag'rikeng munosabatda bo'lish masalalariga alohida urg'u berilgan. Ushbu tamoyillar Islomning insonparvarlik mohiyatini ochib beradi.*

Kalit so'zlar: *hadis, sha'ni, qadr-qimmat, Qur'oni Karim, Payg'ambar, din, tarix, musulmon.*

Абстрактный. *Ислам — это целостная религия, которая регулирует жизнь общества не только посредством религиозных ритуалов, но и на основе моральных и правовых норм. Священный Коран и хадисы нашего Пророка Мухаммеда (мир ему) подчеркивают важность уважения прав человека, установления равенства и справедливости в обществе, а также терпимости к различным убеждениям и взглядам.*

Эти принципы раскрывают гуманистическую сущность ислама.

Ключевые слова: *хадис, честь, достоинство, Кор'ан, Пророк, религия, история, мусульманин.*

Abstract. *Islam is a complete religion that regulates the life of society not only through religious rituals, but also on the basis of moral and legal norms. The Holy Quran and the hadiths of our Prophet Muhammad (peace be upon him) emphasize the issues of respecting human rights, establishing equality and justice in society, and being tolerant of different beliefs and views. These principles reveal the humanistic essence of Islam.*

Keywords: *hadith, honor, dignity, Qur'an Karim, Prophet, religion, history, Muslim*

Kirish: Mening fikrimcha, bu mavzu har bir inson hayotida muhim ahamiyatga ega.

Islomda inson huquqlari masalasi, avvalo, insonning sha'ni va qadr-qimmatini ulug'lash g'oyasiga tayanadi. Ma'lumki, Qur'oni Karimda inson aziz va mukarram mavjudot sifatida yaratilgani ta'kidlanadi (Isro surasi, 70-oyat). Bu esa inson hayoti, erkinligi, mol-mulki va onomusining daxlsizligini anglatadi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hadislarida ham insonlarga zarar yetkazish, ularni kamsitish va haq-huquqlarini poymol qilish qat'iyan man etilgan. Xususan, "Musulmon — boshqalarga qo'li va tili bilan ozor bermaydigan kishidir", - degan hadis, inson huquqlarini hurmat qilishning muhim mezonini belgilaydi.

Asosiy qism: *Birinchidan, ijtimoiy tenglik Islom ta'limotida muhim o'rin egallaydi.*

Ikkinchidan, Islom insonlarni kelib chiqishi, millati yoki ijtimoiy mavqeiga ko'ra ajratishni inkor etadi. SHuni ta'kidlash lozimki, Qur'oni Karimda barcha insonlar bir ota va bir onadan yaratilgani, ularning ustunligi faqatgina taqvo bilan o'lchanishi bayon etiladi (Hujurot surasi, 13-oyat). Bundan tashqari, Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning Vidolashuv xutbalarida aytilgan tenglik haqidagi fikrlari Islomda kamsitish va irqchilikka mutlaqo o'rin yo'qligini yaqqol ko'rsatadi.

Adolat Islom axloqiy-huquqiy tizimining asosiy ustunlaridan biridir. Darhaqiqat, Qur'oni Karimda adolat bilan hukm qilish barcha musulmonlar uchun majburiyat sifatida ko'rsatilgan

(Niso surasi, 58-oyat). Islomda adolat faqat sud-huquq tizimi bilan cheklanmay, kundalik hayotda ham halollik, mas'uliyat va vijdon bilan ish tutishni talab qiladi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) adolatli boshqaruvni yuksak baholab, adolatli rahbarning Qiyomat kuni alohida martabaga ega bo'lishini ta'kidlaganlar. Shu bilan birga, Islom ta'limotida tolerantlik va bag'rikenglik ham muhim ahamiyatga ega. Qur'oni Karimda diniy majburlash qat'iyon rad etilib, har bir insonning e'tiqod erkinligi tan olinadi (Baqara surasi, 256-oyat). Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning boshqa din vakillariga nisbatan adolatli va rahmdil munosabatda bo'lish haqidagi ko'rsatmalari Islomning bag'rikenglik ruhini namoyon etadi. Misol tariqasida, tarixiy manbaalarni keltirish mumkin. Masalan, Tarixda musulmon jamiyatlarida turli din va millat vakillari tinch-totuv yashagani bunga asos bo'la oladi.

Xulosa: *Xulosa qilib aytganda, Islom dini inson huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash, adolat va tolerantlikni qaror toptirishga qaratilgan umuminsoniy qadriyatlarni mujassam etgan ta'limotdir. Shuningdek, ushbu tamoyillar bugungi globallashuv davrida ham jamiyat barqarorligi va tinchligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero.*

Xalqimiz bejizga aytmagan: "Adolat qilichi kesgan qo'l og'rimas". Fikrimni tugallar ekanman, bir narsani ta'kidlashim joiz, har bir ishni adovat emas, adolat yengadi. Tinchlik bo'lgan davlatga hech qanday yov balki, har qanday dindan chiqqan aqidaparastlar yaqinlasha olmaydi. Iymoni mustahkam insonning, adolati barqarordir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qur'oni Karim. O'zbek tilidagi tarjima va tafsirlar.
2. Imom Buxoriy. Al-jome' as-sahih.
3. Imom Muslim. Sahihi Muslim.
4. Hamidulloh, M. Islom huquqi va inson huquqlari.
5. Al-Qaradoviy, Y. Islom va ijtimoiy adolat.
6. Usmonov, U. Islom axloqi va falsafasi.